

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI  
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**ADABIYOT**

**FANIDAN ABITURIYENTLAR UCHUN O‘QUV DASTUR**

**TOSHKENT - 2016**

**Ushbu dastur oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlariga abituriyentlarni tayyorlashga mo‘ljallangan. Kursning masadi adabiyot fanidan o‘rta maktab hamda akademik litseyda olingan bilimlarni umumlashtirib, adabiy davrlar hamda mavzular bo‘yicha chuqurlashtirishdan iborat.**

**Tuzuvchi: Normatova Sh. U.** - O‘zbek tili kafedrası dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchilar: Rixsiyeva G.** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Aripova A.** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fanning o‘quv dasturi JIDU o‘quv-uslubiy kengashining 2016- yil \_\_\_  
\_\_\_\_\_-sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya  
etilgan.

## **SO‘ZBOSHI**

Har tononlama rivojlangan komil insonni tarbiyalashda adabiyot qudratli vosita.

O‘quv predmeti sifatida uning yoshlar tuyg‘ulari, ma’naviyati, didi, nutqi, dunyoqarashini takomilida ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ham adabiyot o‘zbek tili bilan bir qatorda oliy o‘quv yurtlariga qabul imtihonlarining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Ayni paytda kirish imtihonlari test sinovlari ham davr talablariga, jahon andozalariga muvofiq holda yildan-yilga takomillashtirilib bormoqda. Savollarning qo‘yilishi, mazmun-mohiyati, maqsadi tobora teranlik kasb etmoqda hamda abituriyent oldiga yangi talablar qo‘ymoqda. Endilikda quruq yodlash, yuzaki, umumiy bilimlar bilan o‘qishga kirish mumkin emasligi barchaga ayon. Zamonaviy ta’lim keng va chuqur bilimlarga, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, fanning mazmun-mohiyatini his qiladigan, mustaqil fikrlay oladigan, har qanday vaziyatda puxta bilim va ko‘nikmalariga tayanib muammoni hal qilishga qodir kadrlarni tayyorlashga asosiy diqqat-e’tiborni qaratmoqda. Bu esa abituriyentlar zimmasiga katta mas’uliyat va talablar qo‘yadi.

Ushbu dastur o‘z oldiga salohiyati va bilimlari bo‘lgan yoshlarga bu borada ko‘maklashish, yo‘naltirish, yodga solish va chiqurlashtirish maqsadini qo‘yadi. Shundan kelib chiqib, unda adabiyot fani bo‘yicha o‘rta maktab hamda akademik litsey va kollej darsliklariga tayangan holda barcha mavzularni qamrab olishga harakat qilindi.

### **Fanning maqsadlari:**

1. Abituriyentlarga adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida ma’lumot berish.
2. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining taniqli namoyandalari hayoti va ijodi bilan tanishtirish.
3. Adabiy tur va janrlar haqida ma’lumot berish.
4. Badiiy san’atlar to‘g‘risida bilim berish, tasavvurlarni kengaytirish.

5. Badiiy adabiyotni his qilish, tushunish ko‘nimasini shakllantirish.
6. Adabiyot fanidan turli xarakterdagi testlarni mustaqil yecha olish ko‘nimasini rivojlantirish.
7. Mustaqil mutolaa qilish, so‘zlab berish, tahlil qilishga o‘rgatish.
8. Mumtoz adabiyotning murakkab ramzlari hamda tili borasida ko‘nikma va malakalarini oshirish.
9. Katta qamrovdagi materialni o‘zlashtirishda tartib, intizom va mehnatga odatlantirish.
10. Abituriyentlarda mas’uliyat va qat’iyat, o‘ziga ishonch hissini mustahkamlash.

Fanni o‘qitish usuli muammoli ma’ruzalar, savol-javob, davra suhbatlari, amaliy mashg‘ulotlarning birligiga asoslanadi. Mashg‘ulotlar davomida ta’limning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, interfaol metodlar, jumladan, aqliy hujum, blits-so‘rov, T-sxema, idrok xaritasi, guruhlarda ishlash kabi usullardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Fanni abituriyentlar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun o‘quv qo‘llanmalari, vizual va tarqatma materiallar, ma’ruza matnlari taqdim qilinadi hamda texnik vositalardan foydalaniladi.

## **ABITURIYENTLAR BILIMI, O‘QUVI VA KO‘NIKMASIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

Ushbu dastur bo‘yicha ta’lim talabalardan barcha mavzularni to‘liq va a’lo darajada o‘zlashtirilishini talab qiladi. Negaki zamonaviy raqobat sharoitida o‘rtacha bilim bilan oliy o‘quv yurtiga kirish mumkin emasligi barchaga ayon. Shu bois abituriyentlardan mazkur fanga jiddiy va mas’uliyat bilan yondashish talab qilinadi. Abituriyentlarning bitiruvchilar ekanligini hisobga olib mavzular oddiy va murakkabligiga qarab emas, davrlashtirish asosida o‘qitiladi. Auditoriyada ularga ma’ruza o‘qiladi, yo‘nalish beriladi hamda mustaqil o‘zlashtirish uchun mavzular, badiiy asarlar topshiriladi. Adabiyot fanining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, o‘qish, yod olish lozim bo‘lgan material katta hajmda ekanligini ta’kidlash zarur.

## **ADABIYOT DARSLARI MAVZULARINING TAQSIMOTI**

№	MAVZU
1.	Adabiyot va san’atning boshqa turlari. Adabiyot so‘z san’ati. badiiy adabiyotning tabiati va vazifasi. Adabiyot tarixini davrlashtirish.
2.	Xalq og‘zaki ijodi. O‘zbek folklori turlari va janrlari. Lirik, epik, dramatik tur haqida ma’lumot. Xalq qo‘shiqlari, maqollar, matallar, topishmoqlar.
3.	Afsonalar, rivoyatlar, asotirlar, naqlar, askiya.
4.	Xalq ertaklari, ularning tasnifi. Hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrlil ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar, adabiy ertaklar.

5.	Masal janri. Ezop masallari.
6.	Xalq dostonlari, ularning turlari. Doston janrining badiiy xususiyatlari, ta'rif va turlari. Romantik dostonlar. "Ravshan", "Malikayi ayyor", "Kuntug'mush" dostonlari.
7.	Qahramonlik dostonlari. "Alpomish" dostoni, dostonning yozib olinish tarixi, nusxalari, undagi obrazlar tizimi. Dostonning badiiy xususiyatlari, mubolag'a, sa'j haqida ma'lumot
8.	Qadimgi yozma adabiy yodgorliklar. Zardushtiylik haqida ma'lumot. "Avesto" asari. Uning nusxalari.
9.	VI-VIII asrga tegishli manbalar. Umumturkiy adabiyot tushunchasi. O'rxun-Enasoy yodgorliklari. Ularning topilishi va o'rganilishi tarixidan. "To'nyuquq", "Kul tegin", "Bilga xoqon" bitiklarin
10	"Shiroq" rivoyati. Mirkarim Osim va uning ijodi.
11	Ilk Uyg'onish davridagi turkiy adabiyot. Islom dini va adabiyot. Abu Mansur Saolibyning "Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl al-asr" asari.
12	Imom Ismoil Al-Buxoriy hayoti va ijodi. "Jome as-sahih asari". Hadis haqida ma'lumot. "Al-adab al-mufrad" kitobi.
13	Adabiyotda tasavvuf falsafasi. Tasavvuf ramzlari.
14	X-XII asrlar adabiyoti. Qoraxoniylar davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Turkiy til rivoji. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk".
15	Yusuf Xos Hojib. "Qotadg'u bilig" asari. Dostonning nusxalari, badiiy xususiyatlari. Didaktik / pandnoma janri haqida ma'lumot.
16	Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul -haqoyiq" asari.
17	Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi. Tasavvuf g'oyalari ifodasi. "Hikmatlar" asari.
18	Nosiriddin Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. Asarning yozilish tarixi, mazmun-mundariyasi, turkcha payg'ambarlar tarixi ekanligi. Undagi tarixiy-ilohiy voqealarni hikoya qiluvchi qissalar.
19	Saysi Saroiy. "Guliston bit-turkiy" asari.
20	XIV-XVII asrlar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
21	Xorazmiy. "Muhabbatnoma" asari. Noma janri.
22	Atoiy. Shoir hayoti va ijodi. G'azallari. Gadoiy.
23	Haydar Xorazmiy. "Mahzan ul-asror" yoki "Gulshan ul-asror" falsafiy-didaktik dostoni. "Gul va Navro'z" dostoni
24	Lutfiy. Navoiy va Lutfiy. G'azallari
25	Alisher Navoiy.Hayoti va ijodiy, ilmiy, arboblik faoliyati.

	Devonlari. “Xazoyin ul-maoniy”. Lirikasining badiiy va ijtimoiy xususiyatlari
26	Navoiyning nasriy asarlari. “Mahbub ul-qulub” pandnoma janridagi asar
27	Navoiyning ilmiy asarlari. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. “Majolis un-nafois” tazkirasi
28	“Lison ut-tayr” dostoni. Unda tasavvuf g‘oyalari ifodasi.
29	Xamsachilik an‘anasining vujudga kelishi tarixi. Buyuk xamsanavislar – Nizomiy Ganjaviy. Xisrav Dehlaviy. Abdurahmon Jomiy.
30	Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni. “Hayrat ul-abror”, undagi maqolalar.
31	“Farhod va Shirin” dostoni. Asarning asosiy qahramonlari, komil inson orzusi.
31	“Layli va Majnun” dostoni
32	“Sab‘ayi sayyor” dostoni, undagi obrazlar. Dostondagi 5-iqlimdan kelgan sayyohning “Mehr va Suhayl” hikoyasi.
34	“Saddi Iskandariy” dostoni. Odil podsho haqidagi orzular Iskandar timsolida. Dostondagi shoh va darvesh hikoyasi
35	Xoja. “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, “Maqsad ul-atvor” asarlari.
36	Zahiriddin Muhammad Bobur. Hayoti va she‘riyati. Bobur lirikasining janrlari.
37	“Boburnoma” tarixiy-biografik asar.
38	Turdi Farog‘iy. Hayoti va ijodiy merosi. “Subxonqulixon va uning amir-ulamolari haqida” muhammosi.
39	So‘fi Ollayor. Boborahim Mashrab – tasavvuf adabiyoti vakillari. Ular ijodi, tariqatlari.
40	Gulxaniy. “Zarbulmasal” asari. Asarning majoziyligi. Masal janri haqida. (Ezop masallari)
41	Mahmur, Munis Xorazmiy, Amiriyy ijodi.
42	Jahon Otin Uvaysiy hayoti va adabiy merosi. G‘azallari.
43	Nodira. Lirikasi. “Firoqnoma” asari
44	Horazm adabiy muhiti. Muhammad Rizo Ogahiy. Feruz.
45	XIX- XX asrlar adabiyoti. O‘zbek ma‘rifatchilik adabiyoti. Bu adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari
46	Dilshodi Barno, Komil Xorazmiy ijodida ma‘rifatchilik g‘oyalari.
47	Muqimiy. Lirikasi, hajviyoti, sayohatnomalari, maktuboti.
48	Zavqiy hayoti va ijodi. Asarlari. Furqat. Lirikasi, publitsistikasi, nasriy asarlari, tarjimalari, ilmiy asarlari.
49	Anbar Otin. “Qoralar falsafasi”. Avaz O‘tar ijodi.
50	Jadid adabiyoti. Turkistonda jadid g‘oyalarining yoyilishi, namoyandalari. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Padarkush”.
51	Abdurauf Fitrat. Hayot va ijod yo‘li. She‘riyati, ilmiy asarlari.

	Dramaturgiyasi. “Abulfayzxon” fojiasi.
52	Abdulla Avloniy. She’riyari, “Turkiy Guliston yoki axloq” asari
53	Abdulla Qodiriy. Hayot va ijod yo‘li. Hikoyalari. (“Uloqda”) Hajviy asarlari. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari. Roman janri haqida.
54	Cho‘lpon. O‘zbek she’riyatida yangi she’riyat asoschisi ekanligi. Cho‘lpon lirikasi, asarlarida erk mavzusi. Nasriy asarlari. “Kecha va unduz” romani.
55	XX asr o‘zbek adabiyoti. Asr boshdagi adabiyot. Murakkab siyosiy-mafkuraviy vaziyat va uning adabiyotdagi aksi. 30-yillar, 50-80-yillar adabiyoti
56	G‘afur G‘ulom. Lirikasi va nasri
57	Oybek. Hayoti, she’riyati, dostonlari. “Qutlug‘qon” romani
58	Abdulla Qahhor. Hayoti va ijodiy faoliyati. Hikoyalari. Qissa va ronlari.
59	Mirkarim Osim. Tarixiy mavzudagi asarlari: “O‘tror”, “To‘maris”. “Zulmat ichra nur”
60	Maqsud Shayxzoda. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi. Tragediya janri haqida
61	Mirtemir, Usmon Nosir hayori va ijodi
62	Zulfiya, Shuhrat, Asqad Muxtor ijodi, she’riyati va nasri
63	Said Ahmad, Saida Zunnunova adabiy merosi. She‘riy va nasriy asarlri. “Ufq” trilogiyasi.
64	Adabiyotdagi yangi to‘lqin ijodkorlari. Odil Yoqubov ijodi. “Ulig‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” romanlari. “Muzqaymoq” hikoyasi.
65	Pirimqul Qodirov. “Uch ildiz”, “Yulduzli tunar” romanlari
66	Ozod Saharfidinov. Hayoti va faoliyati. Ilmiy-adabiy merosi
67	Xudoyberdi To‘xtaboyev, O‘lmas Umarbekov, To‘ra Sulaymon ijodi haqida
68	XX asr adabiyotidagi yangi to‘lqin ijodkorlari: Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Xoshimov, Rauf Parfi
69	Tog‘ay Murod, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon ijodi
70	Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti